



O'QUVCHILARIDA OILAGA NISBATAN QADRIYATLI MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISH - PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Berdiyeva G.Sh.

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti

Omonova B.

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti magistranti

Tayanch so'zlar: oila, qadriyat, ota-ona va bolalar, ta'lim-tarbiya, insonparvarlik.

Ключевые слова: семья, ценности, родители и дети, образование, гуманизм.

Key words: family, values, parents and children, education, humanism.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada o'quvchilarida oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirish - psixologik-pedagogik muammo ekanligi o'rganilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье исследовано, что формирование ценностных отношений с семьей у студентов является психолого-педагогической проблемой.

SUMMARY:

This article examines that the formation of value relationships with family in students is a psychological and pedagogical problem.

Oila - avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan madaniy asarlar, urf-odatlar, qadriyatlarning uzviyligini saqlaydigan ijtimoiy-madaniy amaliyotning asosiy tashuvchisidir.

Shu bilan birga, oilaning farovonligi davlatning milliy xavfsizligi, mamlakatda innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning sharti sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasining meyoriy-huquqiy hujjatlarining tahlili - oilaviy turmush tarzi, oilaga bo'lgan munosabat, oila va ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik qadriyatlarini oshirishga va "oilaning ta'limiy, madaniy va ma'rifiy salohiyati" ni amalga oshirishga yo'naltirilayotganligini ko'rsatadi.

Oila jamoatchilik instituti sifatida jamiyatning paydo bo'lish jarayonida vujudga keldi. Oila tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi qadriyatlarni mustahkamlash orqali aniqlanib, ular: oila a'zolari rioya qiluvchi meyorlar, ota-



ona va bolalar, ta'lim-tarbiya, ularni amalga oshirishdagi mas'uliyatlilik hissi va shu kabilardir. Mazkur qadriyatlar o'zni tuta bilish qoidalari, javobgarlik hissi, erkak va ayol kabi subyektlar o'rtasidagi vaqt o'tishi davri bilan ma'lum bir shaklni namoyon etadi. Ushbu qadriyatlar oilada huquq va majburiyatlarni taqsimlanishi va tartiblashtirishga imkon bergan. Jamiyat rivojining daslabki bosqichlarida, bunday munosabatlar urf-odat (qabila, urug'), o'zida axloqiy qoidalarni namoyon etib, diniy qoidalarga asoslanish orqali nazorat qingan

oila tarbiyasi vazifalarini muvaffaqiyatli yechimini topish, turmushda uchraydigan hayotiy qadriyatlar ma'nolarini o'zlashtirish faqatgina oila va boshqa jamoatchilik institutlari bilan birgalikda bo'lishi mumkin. Bunda ta'lim muassasasi doimiy tarzda tarbiya jarayonini hamda bola, ota-ona va sotsium kabi subyektlarni o'zaro harakatlarini ta'minlovchi muhim ijtimoiy institutlardan biri bo'lib qolaveradi. Taklif etilayotgan yondashuvni ta'minlovchi qadriyatli tushuncha sifatida shaxsning qayg'urishi, mas'uliyatliligi, mehnatsevarligi, mustaqilligi kabilar qaraladi. Ularni bajarilishi jamiyatdagi betartibliklarni oldini oladi. Inson mavjudligining hayotiy izini nafaqat biologik yo'lini kuzatish orqali, balki uning muomolasi, ta'limi, to'plangan tajribani o'tkazishi, ya'ni kattadan kichikka taqdim etish yo'li orqali ham kuzatish mumkin.

Shunday qilib, inson oilada va oila yordamida inson bo'lib shakllanadi. Oila va inson uzviy bog'liqlikda bo'lib, uning oiladan ayri holda mavjudligi shartlidir.

Ota-onalarning eng yaxshi pozitsiyasi uch asosiy shartga javob berishi kerak: adekvatlik, qayishqoqlik va bashorat qilishlik. Katta yoshli kishi pozitsiyasining adekvatligi o'z farzandining fazilatlarini real aniqlikda baholash, uning individualligini ko'ra olish, tushunish va hurmat qila bilishga asoslanadi. Ota-ona holatining ko'nishga moyilligi muloqot tarzi, bolaning ulg'ayishiga qarab hamda oila turmushi sharoitlari turli o'zgarishlariga bog'liq ravishda unga ta'sir etish usullarini o'zgartirishga tayyorlik va qodirlik sifatida ko'rib chiqiladi. Pozitsiyaning bashorat qilishligi bolaning "yaqin rivojlanish zonasi"ga va ertangi kun vazifalariga uning mo'ljalni olishida ifodalanadi. Katta yoshli kishining ortda qoldiruvchi tashabbusi bo'lib, bolaning kamoloti istiqbollarni hisobga olgan holda unga umumiy yondashuvni o'zgartirishga qaratilgan. Tarbiyaning mazmun modellarini hisobga olgan holda ta'lim muassasasi va ota-onalar oldida jiddiy vazifa turadi: boshlang'ich sinf o'quvchilarida oilani ardoqlash tuyg'usini shakllantirish bo'yicha yangi tarbiyaviy strategiyani yaratish bo'yicha ko'p qirrali ish olib borish talab qilinadi. Bunday o'tish ta'lim muassasasi va oila o'zaro birga ishlashining yangi tarbiyaviy tizimini loyihalashni: tashhislash usullarini tanlash va yaratishni; qiyinchiliklarni bartaraf etish va korreksion

ishlash tizimini ishlab chiqish; dinamik rivojlanayotgan umumpedagogik qobiliyatlar tizimini; qadriyatli mo'ljallarni o'zgartirishni nazarda tutadi.

Ma'naviy-axloqiy rivojlanish va tarbiyalanish nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, boshlang'ich sinfo'quvchilarida oilani qadrlash tuyg'usini shakllantirish "Otasining ismi", "qadrdon yer", "ona tili", "mening oilam", "mening uyim" singari tushunchalar bilan to'ldiriladi. U hurmat va sadoqat, salomatlik, to'kinlik, ota-onani e'zozlash, kattalar va kichiklar haqida g'amxo'rlik va shu kabilar sifatida ko'riladi.

Zamonaviy sharoitlarda oilani qadrlash tuyg'usi shakllanishida oila va maktabning o'zaro hamkorligi roli oshib borayapti. Oilani ardoqlash tuyg'usi shakllanishi bo'yicha o'quvchilarning ta'limiy o'yin faoliyati rejali tarzda tarbiya natijalariga erishish imkonini beradi.

- ▶ O'quvchilar ijtimoiy faoliyat tajribasini egallaydi;
- ▶ muammoli-qadriyatli muloqotga qo'shiladi;

Bu yerda farovon turmush tarzi qaror topadi. O'quvchilarda oilani qadrlash tuyg'usi shakllanishi bo'yicha tarbiyaviy o'yin faoliyatining to'laqonligi va mahsuldorligi aynan oilaga bog'liq.

Zamonaviy oilaning modeli, umuman olganda, iste'molchilar tipiga mos keladi, oilaviy birgalikdagi faoliyat "uydan tashqarida" mehnat qilish orqali topiladigan ish haqi hisobiga tovarlarni iste'mol qilish va xizmatlardan foydalanish bilan qo'shiladi. Ammo ayollar "ikki karra yuklanish"ni boshdan kechirishadi, chunki ular oilaviy xo'jalik ishlarini ham olib boradilar. Oilaning iste'mol turi oiladagi ayol va erkak rollarining o'zgarishi bilan tavsiflanadi, ijtimoiy mavqe merosga ega emas, ota-onalarning professional o'zini o'zi anglashi geografik va ijtimoiy harakatchanlik tendensiyasini belgilaydi.

Oila qadriyatlarda jiddiy o'zgarishi mavjud: ota-onaning obro'sidan tortib, burch, mas'uliyat, bolalarni tarbiyalashda mustaqillik, shaxsiy yutuqlarga qadar; oilalarda bolalar sonini kamayishi, nikohlarning buzilishi ya'ni ajralishlarni ko'payishi ana shular jumlasidandir.

Zamonaviy oilaning aksiologik tabiati, birinchi navbatda, uning qadriyatlari tizimini insonparvarlashtirishda namoyon bo'ladi, chunki insonparvarlik obykti insonning o'zi, shuningdek uning qadriyatlari tizimi bo'lib, oilaviy hayotning qadriyatlari va "asosiy milliy qadriyat" sifatida oila qadriyatlariga qaratilgan

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, umumiy ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo'lgan maktab mashg'ulotlaridan tashqari faoliyatda oilaga qadriyatli munosabatni shakllantirish - oilaviy madaniyat va kundalik hayot qadriyatlarini singdirish, oilaviy munosabatlar madaniyatini va jamiyatda



sogʻlom turmush tarzini shakllantirishga yoʻnaltirilgan pedagogik ish deb qarash maqsadga muvofiq. Shuningdek, kelajakdagi oilali inson shaxsini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga, yoshlarning nikoh va oilaviy hayotga psixologik tayyorgarligini shakllantirishga qaratilgan ota-onalar va tarbiyachilarning maqsadli birgalikdagi faoliyati oilaga qadriyatli munosabatni shakllantirishning muhim omili boʻlib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: Oʻzbekiston, 2017. –488 b.
2. Лесгафт, П. Ф. Семейное воспитание ребенка и его значение. / П. Ф. Лесгафт. – М.: Педагогика, 1991. – 174 с.
3. Лодкина, Т.В. Социальная педагогика. Защита семьи и детства: учеб. пособие / Т.В. Лодкина. – М.: Академия, 2007. – 208 с
4. Арабов, И.А. Этнопедагогика: Культурологический аспект/ И.А.Арабов, Г.И.Нагорная.- Карачаевск: Изд-во КЧГПУ, 1999. - 215с.